



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL

IYUN/6-SON, III-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>





IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
III-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

SUD BOSHQARUVCHILARI FAOLIYATINING IQTISODIY RAG'BATLANTIRISH TIZIMI VA ULARNING SUBSIDIAR JAVOBGARLIGI: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	12
Soliyev Damirjon Nurmatovich	
BLOKCHEYN TEKNOLOGIYASI ASOSIDA MOLIVAVIY TRANZAKSIYALARNI NAZORAT QILISH TIZIMI (SMART-KONTRAKTLAR, MARKAZLASHMAGAN MA'LUMOTLAR BAZASI VA AUDIT IZLARI)	18
Olimova Mukhlisa Vohidjon qizi	
SANOAT SEKTORIDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH: STRATEGIK AFZALLIKLAR VA TO'SIQLAR TAHLILI	26
Xatamov Ochildi Qurbonovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ЕЁ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ	32
PhD. Юлдашева С.Ш	
TREND MODELLARI YORDAMIDA MEHNAT RESURSLARI SONINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	38
Haydarova Dinora Atamurot qizi	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ВЫКУПА И ПРОДАЖИ КВОТ НА ОРОСИТЕЛЬНУЮ ВОДУ	43
Гоженко Борис Владимирович	
MOLIVAVIY LEVERIJ SAMARASI VA QARZ MABLAG'LARINI BOSHQARISHDA UNDA FOYDALANISH	50
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
XIZMATLAR SOHASIDA WEBMONEY TO'LOV TIZIMINI KOMPYUTERDA O'RNATISH VA SOZLASHNING IQTISODIYOTDAGI ROLI	55
Fazilat Esirgapovna Jomonqulova	
Nizomov Murod	
Qurbonboyeva Rayhon Bahronjon qizi	
MECHANISMS FOR THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF A HEALTHY LIFESTYLE	58
Shukhrat Mashrabboevich Mamadaliyev	
BANK SEKTORIDA OPERATSION SAMARADORLIK VA XAVFLARNI BOSHQARISHNI BAHOLASH	62
R.I.Rashidov	
A.N. Elmurodov	
A.A. Muhiddinov	
TRANSFORMING ECONOMIC GOVERNANCE IN UZBEKISTAN THROUGH DIGITAL PUBLIC SECTOR TOOLS	68
Bokhodirov Boriykhon Boburovich	
Bahromjon Urmanov	
TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA VA KREDIT SALOHİYATINI BOSHQARISH	74
Ergashova Nilufar Sobirovna	
DEHQON XO'JALIKLARIDA QO'SHILGAN QIYMAT ZANJIRINING SHAKLLANISHI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR	80
Azizov Shohsuvor Yuldashevich	
VERTIKAL INTEGRATSİYALASHGAN BANK TUZILMASINI "YAGONA MFO" TEKNOLOGIYASI ASOSIDA TRANSFORMATSIYA QILISH SXEMASI	84
Qo'shboqov Doniyorbek Maxramqulovich	



MUNDARIJA	СОДЕРЖАНИЕ	CONTENTS
	O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA "YASHIL EKOTIZIM" VA RESURS SAMARADORLIGI (RECP)NI JORIY ETISHNING METODOLOGIK ASOSLARI HAMDA EMISSIALARNI KAMAYTIRISH SAMARADORLIGI.....	90
	Do'stqobilov Ulug'bek Ibrohimovich	
	TURIZM SOHASIDA OILAVIY TADBIRKORLIK TUSHUNCHALARINING MAZMUN VA MOHIYATIGA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR	94
	Pardayeva Ozoda Mamayunusovna	
	СНИЖЕНИЕ ТЕХНИЧЕСКИХ И КОММЕРЧЕСКИХ ПОТЕРЬ ЭЛЕКТРОЭНЕРГИИ КАК НАПРАВЛЕНИЕ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ РАСПРЕДЕЛИТЕЛЬНЫХ СЕТЕЙ УЗБЕКИСТАНА	100
	Маърупова Дилсора Абдулла кизи	
	O'ZBEKISTON QURILISH SOHASIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHNING INSTITUTIONAL SHART-SHAROITLARI.....	105
	Qodirov Sardorbek Isroiljon o'g'li	
	АКАДЕМИЧЕСКИЕ НАВЫКИ И ОСОБЕННОСТИ ИХ ФОРМИРОВАНИЯ	113
	Усманова Зумрад Исламовна	
	Рахматуллаев Алижон	
	Сайфитдинов Азизжон	
	G'AZNACHILIK OPERATSIYALARINING BANKLIKVIDLIGINI TA'MINLASHDAGI O'RNI (SILICON VALLEY BANK MISOLIDA).....	119
	Axadov Shahboz Shuxrat o'g'li	
	ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ТВЁРДЫМИ БЫТОВЫМИ ОТХОДАМИ В Г. ТАШКЕНТЕ: ОТ ПОЛИГОННОГО ЗАХОРОНЕНИЯ К РЕСУРСНО-ЭНЕРГЕТИЧЕСКОМУ ИСПОЛЬЗОВАНИЮ	127
	Джусупов Кубанычбек	
	STRATEGIK BOSHQARUV HISOBI AXBOROT TA'MINOTINING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH	133
	Umidjon Kostayev	
	DEVELOPMENT OF A METHODOLOGY FOR TEACHING STUDENTS OBJECTORIENTED PROGRAMMING IN A VIRTUAL COLLABORATIVE ENVIRONMENT USING GENERATIVE ARTIFICIAL INTELLIGENCE TOOLS	140
	Saidova Dilfuza Ergashovna	
	AUDIT SIFATI NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH	145
	Muydinov Erkin Jamaldinovich	
	THE ROLE OF E-COMMERCE IN ECONOMIC DEVELOPMENT: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN'S DIGITAL TRANSFORMATION.....	152
	Shakhriddinova Sitora Tolibjon kizi	
	THE IMPACT OF SUSTAINABILITY PRACTICES IN THE AGRICULTURAL INDUSTRY IN UZBEKISTAN.....	157
	Yorkin Ziyodullaev	
	Munisa Bekmirzaeva	
	РОЛЬ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В ЗЕЛЕНОМ РОСТЕ В УЗБЕКИСТАНА.....	166
	Мохамед Эйд Али Балбаа	
	Усманова Азиза Алишеровна	
	OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING INNOVATSION YO'LLARI.....	173
	Shakirxodjaeva Zuxraxon Rustamxanovna	
	BARQAROR RIVOJLANISH HISOBOTLARINI TUZISH MASALALARI: XALQARO TAJRIBA VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	180
	Menglikulov Baxtiyor Yusupovich	



THE IMPACT OF SUSTAINABILITY PRACTICES IN THE AGRICULTURAL INDUSTRY IN UZBEKISTAN	184
Yorkin Ziyodullaev Munisa Bekmirzaeva	
TASTE OF PLACE: HOW LOCAL-INGREDIENT SOURCING AFFECTS GUEST SATISFACTION AND MENU PROFITABILITY IN HOTEL RESTAURANTS	193
Bahodirova Durdona Atametova Sevara	
INTERACTIONS IN CREATIVE TOURISM: RESIDENTS' PERSPECTIVES IN UZBEKISTAN.....	198
Dildora Khodjaeva Mukhamedkhodjaevna Jasmin Raxmidinova	
XO'JALIK YURITUVCHISUBYEKTLARNING LIKVIDLILIGINI TA'MINLASH MASALALARI	204
Bauyetdinov M.J.	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH SHAROITIDA MINTAQA TABIIY RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)	212
Safarov Otabek Abduhamidovich	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINING NAZARIY JIHATLARI.....	218
O'rinov Akmaljon Axmadjonovich	
ТЕОРИИ УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ РИСКАМИ В БАНКОВСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	223
Убайдуллаева Мафтунахон Акмалхон кизи	
SURXONDARYO VILOYATI IQTISODIYOTIGA JALB ETILAYOTGAN INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGI TAHLILI	230
Xatamova Manzura Ochildiyevna	
TURISTIK MAHSULOT MARKETINGI: NAZARIY ASOSLARI VA RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	240
Usmanova Zumrad Islamovna	
IN VITRO TEXNOLOGIYASI ASOSIDA KARTOSHKA URUG'CHILIGI ZANJIRI SAMARADORLIGINI IQTISODIY BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI	244
Mardonova Zarifa Numonjonovna	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT OPERATSIYALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN RESURSLAR YETARLILIGINI TA'MINLASH MASALALARI	251
Sheraliyev Olimjon O'ktam o'g'li	
O'ZBEKISTONDA ESG MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI VA MEXANIZMLARI	258
Ajibayeva Raiya Maxsutovna	
YASHIL MOLIYALASHTIRISH INSTRUMENTLARI ORQALI BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH MASALALARI	262
Ajibayeva Raiya Maxsutovna	
ANIQ FANLARNI O'QITISHDA METAKOGNITIV YONDASHUVLAR: TEORETIK ASOSLAR, KOGNITIV ARXITEKTURA VA AMALIY TRANSFER MUAMMOLARI	265
Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li	
XUFYONA IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA UNI O'ZBEKISTONDA KAMAYTIRISH CHORA-TADBIRLARI	270
Kalandarov R.A.	



XUFYONA IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA UNI O'ZBEKISTONDA KAMAYTIRISH CHORA-TADBIRLARI

Kalandarov R.A.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Iqtisodiyot nazariyasi kafedrası dotsenti, PhD

E-mail: kalandarov.1979@mail.ru

ORCID: 0000-0002-9080-4402

Annotatsiya. Mazkur maqolada xufyona iqtisodiyotning nazariy asoslari, uning mohiyati, turlari, vujudga kelish omillari hamda iqtisodiy va ijtimoiy oqibatları ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda O'zbekistonda kuzatilmaydigan iqtisodiyotning holati va iqtisodiyot tarmoqlari kesimidagi ko'rsatkichlari o'rganilib, xufyona iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan davlat siyosati, huquqiy mexanizmlar va amaliy chora-tadbirlarning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, iqtisodiy shaffoflikni oshirish, raqobat muhitini mustahkamlash hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: xufyona iqtisodiyot, yashirin iqtisodiyot, kuzatilmaydigan iqtisodiyot, iqtisodiy xavfsizlik, yalpi ichki mahsulot (YalM), fiskal siyosat.

Аннотация. В данной статье научно проанализированы теоретические основы теневой экономики, её сущность, виды, факторы возникновения, а также экономические и социальные последствия. В ходе исследования изучены состояние ненаблюдаемой экономики в Узбекистане и показатели по отдельным отраслям экономики, раскрыто значение государственной политики, правовых механизмов и практических мер, направленных на сокращение доли теневой экономики. Кроме того, обоснованы приоритетные направления повышения экономической прозрачности, укрепления конкурентной среды и обеспечения устойчивого экономического развития.

Ключевые слова: теневая экономика, скрытая экономика, ненаблюдаемая экономика, экономическая безопасность, валовой внутренний продукт (ВВП), фискальная политика.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the theoretical foundations of the shadow economy, its essence, types, determinants, and socio-economic consequences. The study examines the current state of the non-observed economy in Uzbekistan and its sectoral indicators, highlighting the importance of state policy, legal mechanisms, and practical measures aimed at reducing the share of the shadow economy. In addition, the paper substantiates priority directions for enhancing economic transparency, strengthening the competitive environment, and ensuring sustainable economic development.

Keywords: shadow economy, hidden economy, non-observed economy, economic security, gross domestic product (GDP), fiscal policy.

KIRISH

Iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashishda xufyona iqtisodiyotni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ishlab chiqarish va moliyaviy muassasalar, turli iqtisodiy tarmoqlar hamda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatida shaffoflikni ta'minlash iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashning muhim omillaridan biridir. Shu bois xufyona iqtisodiyotning oldini olish, milliy boylik va davlat byudjeti daromadlarining samarali shakllanishi hamda taqsimlanishini ta'minlash dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xufyona iqtisodiyot iqtisodiy faoliyatning davlat ro'yxatidan o'tmasdan yoki soliq hamda statistika hisobotlarida to'liq aks ettirilmagan amalga oshiriladigan shakli bo'lib, iqtisodiy xavfsizlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Xorijiy olimlar Friedrich Schneider va Dominik Enste tadqiqotlarida xufyona iqtisodiyotning



asosiy omillari sifatida yuqori soliq yuki hamda davlat tomonidan tartibga solish darajasining ortiqchaligi qayd etilgan. Rossiyalik olim Aleksandr Buzgalin esa xufyona iqtisodiyotning shakllanishini institutsional muammolar va korrupsiya omillari bilan izohlaydi. O'zbekistonlik olimlar Bahodir Xodiev va Qobiljon Abdurahmonov ilmiy ishlarida norasmiy bandlikni qisqartirish, iqtisodiy jarayonlarni raqamlashtirish hamda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish orqali xufyona iqtisodiyot ulushini kamaytirish mumkinligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, elektron to'lov tizimlarini keng joriy etish va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash ushbu yo'nalishdagi samarali mexanizmlar hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda xufyona iqtisodiyotning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishda kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida induksiya, deduksiya, tahlil va sintez usullaridan foydalanilib, xufyona iqtisodiyotning mazmuni, shakllari va rivojlanish omillari yoritildi. Shuningdek, statistik ma'lumotlarni qayta ishlash, qiyosiy tahlil hamda ilmiy abstraksiya usullari asosida O'zbekistonda kuzatilmaydigan iqtisodiyotning dinamikasi va tarmoqlar kesimidagi holati baholandi. Olingan natijalar asosida xufyona iqtisodiyotni qisqartirishning ustuvor yo'nalishlari hamda amaliy chora-tadbirlar yuzasidan ilmiy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xufyona iqtisodiyot, korrupsiya va uyushgan jinoyatchilik turli mamlakatlarda hamda tarixiy davrlarda uchrayib kelgan iqtisodiy hodisalar hisoblanadi. Iqtisodiy adabiyotlarda xufyona iqtisodiyotga turlicha yondashuvlar mavjud bo'lib, u ayrim manbalarda qonun bilan taqiqlangan faoliyat turlari, ayrim tadqiqotlarda esa kuzatilmaydigan va yashirin iqtisodiy faoliyat sifatida talqin etiladi. Shu bilan birga, xufyona iqtisodiyot rasmiy statistika va hisob tizimlarida aks ettirilmaydigan, natijalari yalpi ichki mahsulot tarkibiga kiritilmaydigan hamda soliqqa tortilishdan chetda qoladigan iqtisodiy faoliyatlarni ham qamrab oladi.

Ilmiy manbalarda xufyona iqtisodiyot davlat nazorati va hisobidan tashqarida amalga oshiriladigan, jamiyat va davlat organlaridan yashirilgan iqtisodiy faoliyat sifatida tavsiflanadi. Bunday faoliyat tarkibiga norasmiy iqtisodiy munosabatlar bilan bir qatorda ayrim noqonuniy iqtisodiy operatsiyalar ham kirishi mumkin. Shuningdek, xufyona iqtisodiyot amaldagi qonunchilik va umumqabul qilingan qoidalarni chetlab o'tish orqali shakllanadigan iqtisodiy munosabatlar tizimi sifatida ham baholanadi. Mazkur faoliyat natijasida olinadigan daromadlar ko'pincha rasmiy hisobga olinmaydi va soliqqa tortish tizimidan tashqarida qoladi.

Umuman olganda, daromadlarni yashirish yoki soliq majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlashga olib keladigan iqtisodiy faoliyat turlari xufyona iqtisodiyotning muhim ko'rinishlari sifatida qaraladi. Perulik olim Ernando de Soto tadqiqotlarida Lotin Amerikasi mamlakatlari misolida xufyona iqtisodiyotning shakllanish omillari chuqur tahlil qilingan. Olimning ta'kidlashicha, mulk huquqlarining yetarli darajada himoya qilinmasligi hamda sud-huquq tizimining samaradorligi bilan bog'liq muammolar norasmiy iqtisodiy munosabatlarning kengayishiga ta'sir ko'rsatadi.

Xufyona iqtisodiyot iqtisodiy munosabatlar tizimining o'ziga xos shakli bo'lib, unda moddiy ne'matlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash hamda iste'mol qilish jarayonlari rasmiy statistika va nazorat tizimlaridan tashqarida amalga oshiriladi. Natijada bunday faoliyatdan olingan daromadlar soliqqa tortilmaydi va rasmiy hisobda aks ettirilmaydi.


Iqtisodiyotda xufyona iqtisodiyotning asosiy jihatlarini davlatning fiskal manfaatlari, yalpi ichki mahsulotning (YaIM) real hajmi, iqtisodiy xavfsizlik, huquqiy parametrlar hamda xo'jalik subyektlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tavsifida namoyon bo'ladi. Xufyona iqtisodiyotning muhim ko'rinishlaridan biri daromadlarni soliqqa tortish tizimidan yashirish bilan bog'liq bo'lib, u turli moliyaviy va xo'jalik operatsiyalari orqali amalga oshirilishi mumkin. Jumladan, ayrim hollarda turli banklarda bir nechta hisob raqamlarini ochish va ular orqali buxgalteriya hisobida to'liq aks ettirilmagan operatsiyalarni amalga oshirish, daromadlarni rasmiy hisobda to'liq ko'rsatmaslik, mahsulot va xizmatlar tannarxini asossiz ravishda oshirib ko'rsatish yoki ayrim bitimlar qiymatini rasmiy hujjatlarda to'liq aks ettirmaslik kabi holatlar uchrayib turadi.

Shuningdek, iqtisodiy faoliyatning ayrim turlari amaldagi qonunchilik bilan qat'iy taqiqlangan bo'lib, ular iqtisodiy munosabatlarning noqonuniy shakllari sifatida baholanadi. Bunday faoliyatlarga qurol-yarog' ishlab chiqarish va savdosi, narkotik vositalar bilan bog'liq noqonuniy operatsiyalar, kontrabanda, noqonuniy qimor faoliyati, odam savdosi hamda boshqa shu kabi faoliyat turlari kiradi. Yashirin yoki ro'yxatdan o'tmagan korxonalar va ishlab chiqarish subyektlarining vujudga kelishiga esa ayrim hollarda yuqori xarajatlar, tashkiliy murakkabliklar hamda yuqori daromad olishga intilish kabi omillar ta'sir ko'rsatadi.




Qonunchilik me'yorlariga rioya etilmasligi bilan bog'liq holatlarning uchrashi xufyona iqtisodiyot ko'lamini baholashda muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Shu bois xufyona iqtisodiyotning mohiyatini chuqurroq anglash uchun uning tarkibiy unsurlarini tahlil qilish zarur. Umuman olganda, xufyona iqtisodiyot iqtisodiy faoliyatning qonunchilik va rasmiy tartibga solish mexanizmlaridan tashqarida amalga oshiriladigan qismi bo'lib, unda iqtisodiy munosabatlar amaldagi huquqiy me'yorlar va rasmiy qoidalardan chetlashgan holda shakllanadi. Ilmiy adabiyotlarda xufyona iqtisodiyot tarkibida norasmiy, soxta va kriminal iqtisodiyot unsurlari ajratiladi. Norasmiy iqtisodiyotda tovarlar va xizmatlar rasmiy hisobga olinmagan holda ishlab chiqariladi yoki realizatsiya qilinadi. Soxta iqtisodiyot esa qo'shib yozishlar, chayqovchilik operatsiyalari, poraxo'rlik va turli noqonuniy moliyaviy bitimlar bilan tavsiflanadi. Kriminal iqtisodiyot esa amaldagi qonunchilik talablarini buzish va mulk huquqlariga tajovuz qilish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyatlarni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi xufyona iqtisodiyotni kuzatilmaydigan iqtisodiyot sifatida tavsiflaydi. Kuzatilmaydigan iqtisodiyot doimiy statistika kuzatuvlarida to'liq qamrab olinmaydigan, biroq maxsus va bilvosita usullar yordamida baholanadigan iqtisodiy faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. Mazkur iqtisodiyot norasmiy va yashirin iqtisodiyotdan tarkib topadi. Norasmiy iqtisodiyot uy xo'jaliklari yoki jismoniy shaxslar tomonidan belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tmasdan amalga oshiriladigan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatlarini qamrab olsa, yashirin iqtisodiyot qonun bilan taqiqlanmagan, biroq soliqqa tortilishdan yoki ayrim huquqiy talablarni bajarishdan qochish maqsadida davlat organlaridan yashiriladigan iqtisodiy faoliyatlarni o'z ichiga oladi (1-rasm).



1-rasm. O'zbekistonda kuzatilmadigan iqtisodiyot.

1-rasm ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2011-2024-yillar davomida kuzatilmaydigan iqtisodiyot hajmi barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Xususan, mazkur ko'rsatkich 2011-yildagi 53,1 trillion so'mdan 2024-yil yakunlariga ko'ra 505,7 trillion so'mga yetib, qariyb 9,5 barobarga oshgan. Shu bilan birga, kuzatilmaydigan iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi (YalM) ulushi 2011-yildagi 45,9 foizdan 2016-yilda 48,3 foizgacha ko'tarilgan. Biroq 2017-yildan boshlab iqtisodiyotning shaffofligini oshirish va xufyona iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida mazkur ko'rsatkich izchil pasayish tendensiyasini namoyon etgan hamda 2024-yil yakunlariga ko'ra 34,8 foizni tashkil qilgan. Bu holat iqtisodiyotni rasmiylashtirish va statistik qamrov darajasini kengaytirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning ijobiy natijalarini aks ettiradi (2-rasm).



2-rasm. 2024 yilda kuzatilmaydigan iqtisodiyotning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi, foizda.

2-rasm ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, kuzatilmaydigan iqtisodiyotning milliy iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi bo'yicha sezilarli tafovutlar mavjud. Jumladan, 2024-yil yakunlariga ko'ra, kuzatilmaydigan iqtisodiyotning ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 63,6 foizni, qurilish sohasida 41,3 foizni, xizmatlar sohasida 40,1 foizni hamda sanoatda 8,9 foizni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkichlar kuzatilmaydigan iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarda nisbatan yuqori darajada saqlanib qolayotganini va ularni yanada rasmiylashtirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Iqtisodchilar tomonidan amalga oshirilgan hisob-kitoblarga ko'ra, xufyona iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi (YalM) ulushi AQShda taxminan 3-30 foiz, Rossiya Federatsiyasida esa 5-50 foiz oralig'ida baholanadi. Bu holat xufyona iqtisodiyot turli mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanish darajasi, institutsional muhit va davlat boshqaruvi xususiyatlariga qarab turlicha namoyon bo'lishini tasdiqlaydi.

Xufyona iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar qatoriga antropologik, iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy hamda ma'muriy omillar kiradi. Mazkur omillar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, xufyona iqtisodiyot ko'lami va rivojlanish dinamikasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval
Xufyona iqtisodiyotning rivojlanish sabablari va omillari¹

Sabablar guruhi	Tavsifi
Antropologik omillar	Insonning manfaatlar va qadriyatlar o'rtasida muvozanatni ta'minlashga intilishi, iqtisodiy qarorlar qabul qilishdagi individual xususiyatlari hamda xulq-atvor omillari bilan bog'liq jihatlari.
Iqtisodiy omillar	Soliq siyosatini takomillashtirish zarurati, bozorning tovar va xizmatlar bilan to'liq ta'minlanish darajasi, iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasidagi mutanosiblikni mustahkamlash ehtiyoji, iqtisodiy sikllarning ta'siri, aholi xarid qobiliyati va tranzaksiya xarajatlari bilan bog'liq omillar.
Huquqiy omillar	Qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish, iqtisodiy huquqbuzarliklarning oldini olish mexanizmlarini rivojlantirish hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati samaradorligini oshirish bilan bog'liq masalalar.
Ijtimoiy-siyosiy omillar	Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish darajasi, aholining ijtimoiy kayfiyati, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik muhiti hamda institutsional rivojlanish bilan bog'liq omillar.
Ijtimoiy omillar	Aholining turmush darajasi, bandlik ko'rsatkichlari, mehnat migratsiyasi jarayonlari, mehnat munosabatlari, ish haqi tizimi, ijtimoiy himoya mexanizmlari va pensiya ta'minoti bilan bog'liq omillar.
Ma'muriy omillar	Davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, byurokratik to'siqlarni qisqartirish, davlat xizmatchilarining kasbiy salohiyati va mas'uliyatini oshirish hamda tadbirkorlik faoliyati uchun qulay ma'muriy muhit yaratish bilan bog'liq omillar.

¹ Muallif tomonidan yaratilgan.



Xufyona iqtisodiyotning ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlarini tahlil qilish uning mohiyatini chuqurroq anglash hamda ushbu hodisani qisqartirishga qaratilgan samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini beradi. Xufyona iqtisodiyotning ijtimoiy oqibatlari, avvalo, mehnat munosabatlari sohasida namoyon bo'ladi. Bunday sharoitda ayrim xodimlar rasmiy mehnat shartnomalarisiz faoliyat yuritishi natijasida pensiya ta'minoti, sog'liqni saqlash xizmatlari, mehnat ta'tili va ishsizlik nafaqasi kabi ijtimoiy himoya mexanizmlaridan to'liq foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Shuningdek, mehnat sharoitlari, ish haqi, mehnat xavfsizligi va ijtimoiy kafolatlar bilan bog'liq masalalarda muayyan muammolar yuzaga kelishi mumkin. Natijada aholi turli qatlamlari o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarning ortishi, fuqarolarning huquqiy madaniyati va qonunlarga rioya etish darajasining pasayishi kuzatilishi ehtimoli mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-iyundagi 394-son "Yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, iqtisodiyotda xufyona aylanmalar hajmini qisqartirishga qaratilgan tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarida raqamli texnologiyalar va markirovkalash tizimlarini keng joriy etish, naqd pulsiz hisob-kitoblar ulushini oshirish, bank xizmatlari ommabopligini kengaytirish hamda yashirin iqtisodiyot subyektlarini aniqlash mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar belgilangan. Shuningdek, tashqi savdo sohasida yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan samarali mexanizmlarni joriy etish, keng ko'lamli targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish hamda ushbu yo'nalishda nazarda tutilgan jami 23 ta tadbirdan iborat "Yo'l xaritasi" ishlab chiqilgan. Mazkur chora-tadbirlar iqtisodiy faoliyatning shaffofligini oshirish, sog'lom raqobat muhitini mustahkamlash va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6098-sonli Farmoniga² muvofiq, mamlakatimizda yashirin iqtisodiyot darajasini pasaytirish, tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qulay sharoitlar yaratish, tartibga solish va ma'muriy yukni qisqartirish orqali sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, shuningdek, soliq qonunchiligi talablariga rioya etish jarayonlarini avtomatlashtirish va soddalashtirishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar belgilangan. Xususan, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish bo'yicha respublika komissiyasi hamda uning hududiy bo'linmalari tashkil etilib, ularning asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari aniqlashtirilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonida³ xizmatlar sohasida yashirin iqtisodiyot ulushini sezilarli darajada qisqartirish, soha jozibadorligini oshirish maqsadida tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash, xalqaro ekspertlarni jalb qilgan holda kuzatilmaydigan iqtisodiyotni qisqartirish bo'yicha kompleks dasturlar ishlab chiqish hamda norasmiy bandlik darajasini kamaytirish orqali iqtisodiy faoliyat subyektlarini rasmiy sektorga jalb etish vazifalari belgilangan. Bundan tashqari, yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish va rag'batlantiruvchi mexanizmlarni takomillashtirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilgan.

Xufyona iqtisodiyot iqtisodiyotni rasmiylashtirish jarayonlarining samaradorligini pasaytirishi hamda davlat byudjeti daromadlarining to'liq shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Natijada ijtimoiy sohalarni moliyalashtirish imkoniyatlari qisqaradi, raqobat muhiti muayyan darajada buziladi va investitsion jozibadorlikka ta'sir etuvchi omillar yuzaga keladi. Shu bilan birga, mehnat munosabatlari shaffofligi va iqtisodiy siyosatning samaradorligiga ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun xufyona iqtisodiyot ulushini qisqartirish iqtisodiy barqarorlik va uzoq muddatli rivojlanishni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Xufyona iqtisodiyot ulushini yanada kamaytirish maqsadida soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish, elektron to'lov tizimlarini kengaytirish va tadbirkorlik subyektlari uchun yanada qulay biznes muhitini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, norasmiy bandlikni qisqartirish uchun mehnat munosabatlari rasmiylashtirishni rag'batlantiruvchi mexanizmlarni kengaytirish, davlat xizmatlarini to'liq elektron shaklga o'tkazish, naqd pulsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish hamda aholining huquqiy va moliyaviy savodxonligini oshirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi iqtisodiy shaffoflikni kuchaytirish, davlat byudjeti daromadlarini oshirish va milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 30.10.2020 yildagi PF-6098-son <https://lex.uz/uz/docs/-5073459>.

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-iyundagi 394-son "Yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz/uz/pdfs/4864136>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6098-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5073459>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>.
4. Schneider, F., & Enste, D. H. Shadow Economies: Size, Causes and Consequences. *Journal of Economic Literature*, 2000, Vol. 38, No. 1, pp. 77-114.
5. De Soto, H. *The Other Path: The Invisible Revolution in the Third World*. New York: Harper & Row Publishers, 1989.
6. Бузгалин, А. В., & Колганов, А. И. Теневая экономика: форм, масштаб и последствия. Москва: Экономика, 2018.
7. Xodiev, B. Yu., Shodmonov, Sh. Sh. *Iqtisodiyot nazariyasi*. Darslik. Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2019.
8. Abdurahmonov, Q. X. *Mehnat iqtisodiyoti va inson taraqqiyoti*. Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>